

Texnikum bitiruvchilari diqqatiga!

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarning O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bakalavriat ta'lif yo'naliishlariga suhbat asosida imtihoni **2024-yilning 14 avgust** kuni bo'lib o'tadi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va Olmaliq KMK AJ o'rta sidagi ijodiy hamkorlik yanada mustahkamlanadi

Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusiga asosan, yurtimizdagi yetakchi ijodiy tashkilotlarning «Do'stlar klub» tashkil etilib, ularga yirik korxona, bank va kompaniyalar homiy sifatida biriktirilgandi.

Shunga muvofiq, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati o'rta sidaga «Do'stlar klub» doirasidagi qator ijodiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Joriy yilning 31-iyul kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ boshqaruvi raisi, Oliy Majlis senati a'zosi Abdulla Xursanov tashrif buyurib, institut rektori, professor Nodirbek

Sayfullayev bilan uchrashib ikki tomonlama hamkorlikning istiqboldagi rejalari yuzasidan fikr almashishgan edi.

Shunga muvofiq, bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga korxona rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchisi Kamola Umaraliyeva va «Metallurg» madaniyat saroyi direktori Zahridin Mahmudaliyevlarlar tashrif buyurib, institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bilan uchrashishdi.

Dastlab rektor tomonidan oliygoh tarixi, faoliyati va erishgan yutuqlari borasida mehmonlarga qisqacha ma'lumot berib o'tildi. Uchrashuvda tomonlar korxona faoliyatiga oid spektakl sahnalashtirish, dramaturgiya yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar o'rtasida tanlov o'tkazish, korxona va Olmaliq shahri aholisi uchun yaqinlashib kelayotgan mustaqillik bayramini hamkorlikda yuqori saviyada o'tkazish va doimiy ijodiy aloqalarni o'rnatishga kelishib olib, o'tkaziladigan tadbirlarning aniq rejasini ishlab chiqish bo'yicha mas'ullarga tegishli tavsiyalar berib o'tildi.

Shuningdek, korxona maslahatchisi K.Umaraliyeva tomonidan institut kutubxonasi uchun Olmaliq KMK AJ homiyligida nashr etilgan kitoblar to'plami, jurnal va gazetalar taqdim qilindi. Ushbu kitob va jurnallar yosh avlodning ma'naviy kamolotini shakllantirish, ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kitobxonlikni rag'batlantirishga xizmat qilishi ta'kidlab o'tildi.





O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Madaniyat vaziri o'rinosbosari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi

2-avgust kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Madaniyat vaziri o'rinosbosari Murodjon Majidov ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Unda oliyoh rahbariyati, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlari qatnashdi.

Yig'ilishni kirish so'zi bilan ochib bergen institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev oliyohda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari jadallik bilan davom etayotganini hamda muassasaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash va talabalarga yanada qulay sharoitlar yaratish borasida olib borilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratilayotganini aytib o'tdi.

Shundan so'ng, yig'ilishda tashkiliy masala ko'rilib, Madaniyat vazirining tegishli buyrug'i bilan institutga yangidan tayinlangan prorektorlar jamoaga tanishtirildi. Xususan, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor lavozimiga Ergashev Shohbek Muzaffarovich, o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimiga Madiyev Sobir Xayitqulovich hamda ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor lavozimiga Yakubov Baxtiyor Choriyevich tayinlandi.

Murodjon Majidov yangi lavozimga tayinlangan prorektorlarga muvaffaqiyat tilab, ularga institut ravnaqi yo'lida munosib hissa qo'shish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, vazir o'rinosbosari yoshlar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash, ta'lim jarayonini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarga e'tiborni oshirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi.



